

---

**O'QUVCHILARNI KITOBXONLIKKA O'RGATISHDA INTERFAOL  
METODLARNING O'RNI**

**Shomurotova Sevinchoy San'at qizi**

*Urganch davlat pedagogika instituti Pedagogika  
fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining kitobxonlikka o'rgatishda interfaol metodlarni samarali qo'llash tadqiq qilinadi.

**Kalit so'zlar:** *interfaol, metod, o'quvchi, o'qituvchi, kitob, dars, o'qish.*

**Kirish.**

2020-2030-yilarga belgilangan Davlat ta'lim sifatini oshirish yuzasidan konseptsiyalarni belgilangani va bu yuzasidan olib borilayotgan keng ko'lamdag'i ishlarmiz ham muhim ahamiyatga ega. "Ta'lim to'g'risidagi qonunimiz"da belgilanganidek umumiy o'rta ta'limimizning sinflarda dars o'tishni yangicha tusga kiritish asosiy vazifalarimizdan biridir. Shu singari maqolada asosiy vazifamizni interfaollik nima? Savolini qo'yishda, bu – o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bundan o'quv- biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'qituvchi – o'quvchilarining o'zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik – o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi – o'qituvchi, o'quvchi – o'quvchi suhbatlarida sodir bo'ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratish. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda biron ta'minotga ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. O'zaro fikr almashish jarayoni hosil bo'ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi.

Jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bo'lgan. Har bir davrning o'z extiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati o'z fuqarolarining ongliligi bilan belgilanar ekan, bunda albatta kitobxonlik masalasiga alohida e'tibor berilgan. Bugungi kunda "Mutolaa madaniyati", "Kitobxonlik madaniyati", "O'qish madaniyati" kabi atamalar bilan qo'llanilib kelayotgan ijtimoiy hodisalar axborot olish madaniyatining tarkibiy qismlaridir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.**

Interfaol ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat – dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ – ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi .

Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'lif o'z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o'qitish, masofadan o'qitish, internet tarmoqlari asosida o'qitish, media – ta'lif metodlaridan iborat.

“Mutolaa” so‘zi arabcha “o‘qish” degan ma’noga ega bo‘lsa-da, bugungi kunda u kitob o‘qishdan ko‘ra kengroq tushunchani anglatmoqda. A. Umarov fikricha: “Mutolaa” madaniyati ijtimoiy guruhlari, uyushmalar va alohida individlarning umumiylarini ma’lumot olishga yo‘naltirilgan jarayon, xulq-atvor va faoliyatlarini mazmuni hamda tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi o‘zgarishlar majmuini ifodalovchi bilimlar, me’yorlar, ijtimoiy hodisalar va boshqa atributlardir. Ayni chog‘da mutolaa madaniyatini ta'lif tizimlari orqali maxsus shakllantiradigan, ixtisoslashgan ma’lumotni inson hayoti davomida turli manbaalar - kitoblar (badiiy, ilmiy, o‘quv, qomusiy), ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, televideniya, radio va shu kabilar), zamonaviy axborot texnologiyalari (internet, elektron gazeta, jurnal, qo‘llanma va hokazolar), shuningdek, sub’ekt bilan bevosita muloqotga kirishuvchi shaxslar (oila a’zolari,...) orqali ega bo‘linadigan turli yo‘nalish va shakldagi umumiylarini ma’lumotdan farqlash lozim bo‘ladi» 2 . Professor E.I.Yo‘ldoshev «O‘qish madaniyati» tushunchasiga shunday ta’rif beradi: «O‘qish madaniyati - juda keng qamrovli tushuncha bo‘lib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishishni, kitob va u bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo‘lishni, shuningdek, kitobdan to‘la ravishda foydalanishga yordam beruvchi ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishni taqozo etadi».

Jumladan, axborot olish madaniyati badiiy adabiyotni to‘g‘ri tushunish, undan estetik zavq olish, shuningdek, ilmiy adabiyotlar, barcha turdagiligi resurslar bilan ishslash, ma’lumot-bibliografiya va barcha turdagiligi axborot materiallaridan o‘zini qiziqtirgan ma’lumotlarni qidirib topish, cheksiz axborot okimlari orasidan kerakli, muhim bo‘lgan ma’lumotlarni ola bilish, o‘z kasbiy malakalarini oshirishda foydalanish, axborot-kutubxona muassasasidan to‘g‘ri foydalanish yo‘llarini o‘rganish ham axborot olish madaniyati tushunchasi doirasiga kiradi. Axborot olish madaniyatini to‘liq egallagan shaxsga nisbatan esa kitobxon terminini qo‘llash o‘rinlidir.

Safo Matchon: «Kitobxonlik - o‘qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o‘qish, ya’ni maqsadli o‘qishdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kitobxonning yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan fikrini nechog‘li uqishini, ya’ni asar «tili»ga tushunishi kitobxonlik madaniyati, talanti darajasi ko‘rsatadi. Shu tufayli adabiyotimiz talantli yozuvchilar bilan birga talantli kitobxonlarga ham hamisha ehtiyoj sezadi». Uning fikricha kitobxonlik talanti tug‘ma emas, balki tarbiya vositasida kamol topadi. Kitobxonlik haqida gap ketganda, olmon mutafakkiri Gyotening quyidagi fikrini keltirish joizdir: «Kitobxonlikka o‘rganish uchun qanchalik ko‘p vaqt sarf qilinishini odamlar tasavvur qilmaydilar, buning uchun men hayotimning 80 yilini bag‘ishladim, lekin hali ham o‘rgandim, deb ayta olmayman». Professor V.F.Asmus o‘zining «Kitobxonlik - mehnat va ijod» nomli maqolasida esa kitobxonlikka shunday ta’rif beradi: «Mutolaa vaqtida asar

bir ko‘zadan ikkinchi ko‘zaga kuyilgan suv kabi kitobxon miyasiga quyilib qolmay, balki ijodkor kitobxon tomonidan qayta idrok etiladi». «Taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda,- deb yozadi H.To‘xtaboyev,- kitobxonlik fan darajasiga ko‘tarilgan. Kitobxonlik kitobni targ‘ib qilishgina emas, balki kitob o‘qishni, o‘qiladigan kitobni tanlay olishni, mag‘zini chaqishni, ya’ni kitob yordamida o‘zini anglashni o‘rgatish hamdir».

**NATIJALAR.** Ta’lim o‘qitish, o‘qish, rivojlanish mujassam amalga oshiriladigan jarayondir. Axborot olish madaniyatini tarbiyalash ta’lim jarayonida amalga oshadi. Egallagan bilimlar o‘quvchilarini izchil shakllantirib borishni ta’minlaydi.

Ta’lim jarayonining mazmunini tashkil qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalar faqatgina sinfda o‘qitiladigan darslarda shakllanib qolmasdan, balki sinfdan tashqari, aniqrog‘i axborot-kutubxona muassasalarida mustaqil tarzda shug‘ullanish orqali egallanadi.

Axborot-kutubxonachilik ishidagi mavjud tajriba shuni ko‘rsatadiki, axborot olish madaniyatini tarbiyalashning eng samarali vositasi - axborot- kutubxonachilik bilimlarining o‘quvchilar orasida targ‘ib qilishdir. Buning eng samarali yo‘llaridan biri bo‘lib axborot-kutubxonachilik darslarini tashkil etish hisoblanadi.

Axborot olish, u bilan ishlashning assosiy usullari haqida ma’lumot berish axborot-kutubxonachilik darslarining negizini tashkil etadi. Ushbu darslarda axborot bilan ishlash, kitob bilan tanishish, kitobni bevosita o‘qish, eng muhimi, uni uqish, o‘rganish malakalari singdirib borilishi kerak. Shuningdek, elektron kutubxonadan foydalanish, elektron kataloglar, ma’lumotlar bazalari haqida axborotga ega bo‘lish, ulardan foydalanishni o‘rganish kabilalar kiradi. Bu esa o‘z-o‘zidan amalga oshadigan, oddiy narsa emas, albatta. Buning uchun axborot-kutubxona muassasalari mutaxassislaridan juda keng bilim, mahorat talab qilinadi. Axborot-kutubxonachilik darslarini qay tarzda tashkil etish mumkin, degan savolga ham javob berib o’tish lozim. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, axborot-kutubxonachilik darslarini o‘tkazish uchun sinfdan tashqari darslar va tarbiyaviy soatlardan alohida soatlar ajratib olish mumkin. Dars jadvali tuzishda asosan sinflar soni, nazariy va amaliy dars soatlari, o‘qituvchi va kutubxonachi o‘tkazadigan soatlar, darsni o‘tkazish joyini, ya’ni sinfda yoki axborot-kutubxona muassasasida o‘tkazilishini aniqab olish zarur.

Ayni paytda bir necha tashkiliy masalalarni ham hal etish zarur. Chunonchi, ko‘pgina o‘qituvchilar dars berish uslubiyotini yaxshi egallagan bo‘lsalar-da, axborot-kutubxonachilik sohasida yetarli bilim va malakaga ega bo‘lmaydilar. Kutubxonachilar esa aksincha. Shu sababli ham o‘qituvchilarga axborot-kutubxonachilik sohasidan ma’ruzalar o‘qib, ularni axborot-kutubxonalar faoliyati bilan tanishtirish, kutubxonachilarga esa dars o‘tish qoidalari, uslubiyotini o‘rgatish muhimdir. Bizningcha, hozirgi kun talablaridan kelib chiqqan holda o‘quvchilarda axborot olish madaniyatini tarbiyalashning o‘ta muhimligini hisobga olib axborot-kutubxonachilik darslarini ommalashtirish, yo‘lga qo‘yish zarur. Avvalo, buning uchun masalaning tashkiliy jihatini hal etish, ya’ni axborot-kutubxonachilik darslarini yo‘lga qo‘yish yuzasidan qaror qabul qilish, shu qarorga asosan umumiylor o‘rtalari.

ta'lismuassasalari va axborot-kutubxona muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish, axborot-kutubxonachilik darslarini tashkil etish va o'tkazishning aniq shakllarini ishlab chikish zarur.

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ta'lism berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmularini yaratish kabilar umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ta'kidlangan.

Ilg'or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi.

O'qish darslarining samaradorligi ko'p jihatdan ta'lism metodlarining to'g'ri tanlanishiga bog'iqliq. Ularda ko'proq to'g'ri talaffuz, qiroat bilan o'qish, ifodali o'qish nazarda tutilgan.

Hozir maktablarda o'qish izohli o'qish metodi asosida olib borilayotgan ekan, quyidagicha savol tug'iladi: Izohli o'qish nima?

Izohli o'qishga XIX asrning 60 —70-yillarida rus pedagogi K. D. Ushinskiy asos solgan, u o'qishda o'quvchilarini „ongli, tushunib, o'ylab o'qishga" o'rgatishni alohida ta'kidlaydi va uni "Izohli o'qish"-deb nomlaydi.

Izohli o'qish metodiga K. D. Ushinskiy ishining davomchilari yangiliklar kiritdilar. Korf va Vaxterev izohli o'qish o'quvchilarga real bilim berish vositasi desa, Vodovozov va Bunakov o'quvchilarga o'qish jarayonida bilim badiiy asar tahlili va asarning tarbiyaviy xarakteri bilan bog'liq holda beriladi, degan fikrni ilgari suradilar.

Izohli o'qish: quyidagi tamoyillarga to'liq amal qilingandagina muvaffaqiyatli bo'ladi:

1. O'qishni hayot bilan bog'liq holda tashkil etish.
2. O'qishning ongli va ta'sirchan bo'lishi uchun o'quvchilarning hayotiy tajribalariga, taassurotlariga asoslanish.
3. O'qishni ko'rgazmali tashkil qilish, tabiatga, tarixiy joylarga ekskursiyalar uyushtirish, hayvonot olami va o'simliklar dunyosini kuzatish, rasmlar, jadvallar, predmetlar bilan tanishtirish hamda matnni o'quvchining ifodali o'qishi tarzida olib borish.

Xulosa.

Kitobxon - o'quvchi mакtabda va oilada o'rgangan hayotni kitobdagи hayotiy voqealar bilan boyitib, hayot haqidagi tushunchalari, insoniy fazilatlar, yaxshilik, qadriyatlarni, avlodlari hayoti bilan faxrlanish, Vatanga muhabbat, do'stga sadoqat, hurmat, mehnatsevarlik, sabr-toqatlilik fazilatlari yuksalib boradi. Bu borada eng katta yordamchi badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyotda har qanday voqea-hodisa badiiy obrazlardan, ta'sirchan shaklda ifodalandiki, unda yosh kitobxon ko'p fazilatlarni o'rganish, ma'nan boy shaxs bo'lib shakllanishi mumkin. O'quvchilarни kitob o'qishda interfaol metodidan foydalanish samarali natija beradi.

---

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Matchon Safo. Kitob o'qishni bilasizmi.T. "O'qituvchi"
2. Masharipova U. "Badiiy asarlarni idrok etishga tayyorlash". // Boshlang'ich ta'lism, 2010, №4.
3. Nishonov S. «Ta'lism tizimida barkamol shaxs tarbiyasi». J.: Xalq ta'limi, 2000 y.1- son, 12,16-b.
4. Tolipov O'. O'quvchilarni mustaqil ishlashda o'qitish vositalari. T., « Xalq ta'limi » 2000 y. №3.
5. Гулбоев А. Т. Формирование профессиональных компетенций экономистов //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 5-2 (83).
6. Гулбоев А. Т. Гончарное искусство узбеков //Инновационная деятельность в дошкольном образовании. – 2016. – С. 374-376.
7. Гулбоев А. Т. АСПЕКТЫ И ОСОБЕННОСТИ ЦЕЛОСТНОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 10 (135). – С. 29-32.
8. Амонов М.Н. ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЕ ОРГАНИЗАТОРСКИХ КАЧЕСТВ У УЧАЩИХСЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОЛЛЕДЖЕЙ //Научное пространство: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2020. – С. 9-14.